

## STRATEGIK USULLAR ORQALI MENEJMENT SIFATINI UZLUKSIZ TAKOMILLASHTIRISH

**Djabriyev Akbarali Normurodovich**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
professori

**Muxammadiyev O‘tkir Axmedovich**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
dotsenti

**Ravshanbekova Madinabonu**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti  
talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada PVX (PVC) deraza va eshiklarni ishlab chiqarish hamda o‘rnatish jarayonida mahsulot sifatini barqaror va izchil oshirish maqsadida statistik usullar ko‘rib chiqilgan. Statistik usullar va diagrammalarni qo‘llash asosida harakatlar sikli sodda va tushunarli tarzda yoritib berilgan. Statistik usullar faktlarga asoslangan optimal boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini berib, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qurilish, statistik, standartlari, uzluksiz takomillashtirish, uzoq muddatli rejalashtirish, qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish.

### Аннотация

В данной статье рассматриваются статистические методы, направленные на стабильное и последовательное повышение качества продукции при производстве и установке ПВХ окон и дверей. На основе применения статистических методов и диаграмм наглядно и доступно представлен цикл действий. Использование статистических методов позволяет разрабатывать оптимальные управленческие решения, основанные на фактических данных, и обеспечивает непрерывное совершенствование технологических процессов производства.

**Ключевые слова:** Строительство, статистические методы, стандарты качества, непрерывное совершенствование, долгосрочное планирование, принятие решений, управление ресурсами.

### Abstract

This article examines statistical methods aimed at the stable and consistent improvement of product quality in the manufacturing and installation of PVC windows and doors. Based on the application of statistical methods and diagrams, the cycle of actions is presented in a clear and accessible manner. The use of statistical methods makes it possible to develop optimal management decisions based on factual data and ensures continuous improvement of technological production processes.

**Keywords:** Construction, statistical methods, quality standards, continuous improvement, long-term planning, decision-making, resource management.

## KIRISH

Qurilish obyektlari uchun ishlab chiqaradigan va oʻrnatadigan PVX oynalarini muayyan korxonada misolida statistik usullardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlarning maqsadi ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini uzluksiz takomillashtirishdan iborat. Pareto diagrammalari va tavsiflovchi statistik usullarni qoʻllash asosida uzluksiz harakatlar (maʼlumotlarni toʻplashdan boshlab, sifatni takomillashtirish imkonini yaratadigan) ketma-ketlik tasvirlangan. Statistik usullar amalda dalillardan asoslangan holda muqobil boshqaruv qarorlarini yaratish va uzluksiz ravishda texnologik jarayonlarni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Natijada – ishlab chiqariladigan mahsulot sifati oshib boradi.

Xalqaro ISO standartlari talablariga muvofiq, statistik usullar mahsulot sifatini taʼminlaydigan yuqori samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Hayotiy sikli davomida statistik usullardan foydalanishni targʻibot etadi. Bunda mahsulot sifatiga bozor talablarini tahlil qilish, tadqiqotlar oʻtkazishdan boshlab, ushbu mahsulotdan isteʼmolchi foydalangandan keyin uni ekologik xavfsizligini taʼminlagan holda bartaraf etishgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu statistik usullarni tatbiq etish faoliyati buyurtmachi talablariga mos ravishda mahsulot sifatini taʼminlash jarayonlari uzluksiz sifat tizimi faoliyatini taʼminlashga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim. Ushbu faoliyat mazmuni favqulodda mahalliydan boshlab, umumiy tizimgacha uzluksiz takomillashib borishini bildiradi. Statistik usullar sifatini taʼminlash texnologiyalarining asosi sifatida shakllanib bormoqda.

Barcha boshqarish pogʻonalarida mahsulotning sifati bilan bogʻliq maʼlumotlarni qayta ishlash va ularni ishonchliligi boʻyicha saralash va ishlab chiqarish muammolarini yechish hamda mahsulot sifati bilan bogʻliq kamchiliklarni bartaraf etish jarayonida statistik usullardan foydalanish ushbu tadqiqotlarning maqsadi hisoblanadi.

Qurilish obyektlari uchun PVX derazalarini ishlab chiqaradigan va oʻrnatish bilan shugʻullanadigan korxonalardan biri faoliyati misolida statistik usullardan foydalanish imkoniyatini qarab chiqamiz. Lekin quyidagi maʼlumotlardan va usullardan har qanday kompaniyalar ham foydalanishi mumkin.

Ushbu kompaniya ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy yuqori texnologiyalardan foydalanadi. Ushbu texnologiyalar mahsulotni ishlab chiqarishini barcha jarayonlarini: mahsulotni loyihalash, PVXdan derazalarni ishlab chiqarish, deraza oynalarini kesish va ushbu derazalarni tayyor mahsulot koʻrinishiga keltirishni avtomatlashtirgan. Kompaniya Davlat Standartiga va ISO standartiga mos keladigan sertifikatlariga ega kompaniyada sifatni taʼminlash xizmati mavjud boʻlib, uning tarkibiga sifatni boshqarish boʻlimi, sinov laboratoriyasi va texnik nazorat boʻlimi kiradi. Sifatni taʼminlash boʻlimining vazifalaridan biri bu-mahsulot sifati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni toʻplash, qayta ishlashdir. Lekin shular bilan birgalikda sifatni boshqarish toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni yigʻish ham ushbu boʻlimning zimmasiga topshirilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyotida strategik usullarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqobat kuchayib borayotgan, tashqi muhit tez o'zgarayotgan sharoitda tashkilotlar faoliyatining samaradorligi, avvalo, strategik fikrlash va strategik boshqaruv usullarini to'g'ri qo'llashga bog'liqdir. Shu sababli strategik menejment masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

I. Ansoff o'zining fundamental asarlarida strategiyani tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini belgilovchi asosiy vosita sifatida talqin etadi. Uning fikricha, strategik rejalashtirish menejment sifatini oshirishga xizmat qilib, tashqi muhitdagi xavf-xatar va imkoniyatlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Ansoff tomonidan ishlab chiqilgan strategik rejalashtirish modeli hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

M. Porterning raqobat strategiyalari haqidagi qarashlari menejment sifatini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U tashkilotlarning raqobat ustunligiga erishishida xarajatlar yetakchiligi, differensiallashuv va fokus strategiyalarining o'rni katta ekanini asoslab beradi. Porterning "besh kuch modeli" menejmentlarga tashqi muhitni chuqur tahlil qilish orqali samarali strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

P. Drucker menejmentni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, strategik boshqaruvning asosiy vazifasi – tashkilot maqsadlarini aniq belgilash va resurslardan oqilona foydalanish orqali menejment samaradorligini doimiy ravishda oshirib borishdir. Drucker menejment sifatini oshirishda innovatsiyalar va bilimga asoslangan boshqaruv muhimligini alohida ta'kidlaydi.

R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan Balanced Scorecard (muvozanatli ko'rsatkichlar tizimi) konsepsiyasi strategiyani amaliyotga tatbiq etishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuv strategik maqsadlarni moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar orqali baholash imkonini berib, menejment sifatini uzluksiz nazorat qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi menejment nazariyasi, strategik boshqaruv konsepsiyalari hamda menejment sifatini baholashga oid ilmiy yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqot jarayonida strategik usullarning menejment sifatini uzluksiz takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsad qilib olindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv qo'llanilib, menejment sifati tashkilot faoliyatining barcha tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv strategik rejalashtirish, strategiyani amalga oshirish va nazorat qilish jarayonlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqolada korxonaning sifat menejment tizimini (SMT) 2024-yildagi statistik materiallaridan foydalanilgan bo'lib, bunda sifatni boshqarishning afzal


yoʻnalishlaridan foydalanish bilan birga paydo boʻladigan muammolarni samarali yechish va samaradorlikni baholash hamda tatbiq etilgan tadbir-choralarni natijalarni yaxshilash ham nazarda tutilgan.

Polivinilxlorid (PVX) materialidan tayyorlanadigan qurilish buyumlari va alyumin profillarning shuningdek qurilish montaj ishlarining sifatini yaxshilash turli-tuman nuqsonlarni kamaytirishni taʼminlaydi. Bunda barcha turdagi nuqsonlar nazarda tutiladi. Bular ushbu buyumlarni tayyorlash jarayonida saqlash, transportirovka qilish, ulardan foydalanish shuningdek qurilish-montaj ishlari paytida paydo boʻladigan nuqsonlardir.

Aniqlangan nuqsonlarni sabablarini tahlil etishda Davlat Standartlari va ISO standartlariga mos keladigan statistik usullardan foydalanish lozim. Bunda sifatni boshqarishning u yoki bu vositalaridan foydalanish birinchidan, yechiladigan vazifa yoki muammolar murakkabligiga bogʻliq ravishda ikkinchidan, ushbu muammolarni yechish bilan mashgʻul boʻladigan xodimlarning malakasi qanaqa usullardan va vositalardan foydalanish bilan aniqlanadi.

PVX buyumlarini va derazalarini ishlab-chiqarish faoliyati bilan shugʻullanadigan barcha korxonalar duch keladigan muammo bu- katta hajmdagi deraza oynalarining sifatini talablarga mos kelmasligidir (ushbu nuqsonlar kirish nazorati va tayyor mahsulot sifatini nazorati jarayonida aniqlanadi). Ushbu muammoni yechish uchun Pareto diagrammasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu diagramma 2025-yilning birinchi yarim yillik maʼlumotlari asosida tuzilgan.

ABC tahlil diagrammasidan koʻrinadiki koʻpchilik nuqsonlar deraza oynalarining deformatsiyasi va kirishi natijasida uning sifatini pasayishidir.



**1-rasm. Oynaning nuqsonlari boʻyicha taqsimlanishining pareto diagrammasi<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Aniqlangan nuqsonlarning sababi sotib olinadigan oynalarning sifatini pastligidir. Ushbu nuqsonlar oynalarni ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi. Bundan tashqari oynalarni o‘ramasi qo‘yiladigan talablarga javob bermaydi. Odatda deraza oynalari vositachilar sotib olinadi. Vositachilar mahsulot sifatiga hujjatlashgan kafolat bermaydilar. Shu sababli bevosita oynalarni ishlab chiqaruvchi zavodlar bilan shartnoma tuzish moslashtiruvchi harakatlardan biri hisoblanadi. Deraza oynalarini sifatini takomillashtirish va ularni transportirovkasi paytida sifatli o‘rama materiallardan foydalanish talablarini rasmiylashtirish mumkin bo‘ladi.

1-jadval.

**Deraza oynalari nuqsonlarining turlari bo‘yicha taqsimlanishi<sup>1</sup>**

№	Oynaning nuqsonlarini nomlanishi	Nuqsonlarni turlari bo‘yicha taqsimlanishi, foizda
1	Oynalarning sinishi (yoriqlar, kamtiklar)	12
2	Oynaning nuqsonlari	2
3	Oyna shikastlanishi	19
4	Gabarit o‘lchamlarni noto‘g‘riligi	1
5	Germetik qatlamdagi og‘ishlar	1
6	Germetik qatlamda yoriqlar va o‘lchamdagi noaniqliklar	2
7	Yo‘naltiruvchi masofaviy ramkadagi og‘ishlar	5
8	Deraza oynasini oralig‘idagi ifloslanishi	20
9	Deraza oynasini nuqsonlari	21
10	Deraza oynalarini siljishi (noaniq o‘rnatishi)	1
11	Oynani o‘rama ichida shikastlashi	16

Yuqorida keltirilgan diagrammadan va jadvaldan ko‘rinadiki oynalarning mexanik shikastlanishi hamda ularni ichki shikastlanishi sezilarli darajada yuqori. Ushbu ma’lumotlar oynalarni kirish nazorati va PVX derazalarini ishlab chiqarishda chiqish nazorati asosida aniqlangan.

Bunda nima sababdan ishlab chiqarilgan PVX derazalarida nuqsonlarning keskin ko‘payishi yuz beradi? Ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazilmagan bo‘lsa ham, derazalarni ishlab chiqarishda foydalaniladigan materiallarni kirish nazoratining sifati pastligidan darak berishi mantiqan to‘g‘ri deyish mumkin. Deraza oynalarini mexanik shikastlanishlar (kemtik va yoriqlar) soni kirish nazorati jarayonida aniqlanganicha nisbatan birmuncha yuqori. Lekin ushbu holatda ko‘rsatilgan sabablardan tashqari, faraz qilish mumkinki, ushbu faoliyat bilan shug‘ullanadigan xodimlarning malakasi yetarli darajada emas. Ular PVX derazalarini ishlab-chiqarish jarayonida asbob-uskunalardan va teologiyadan samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega emaslar.

To‘plangan ma’lumotlarni taqqoslash asosida xulosa qilish mumkinki, moslashtiruvchi tadbir choralar amalga oshirilgandan keyin (xodimlarni malakasi oshirish, kirish va chiqish nazorati takomillashtirish, texnik hujjatlar va ishchi chizmalar talablariga amal qilish nazorati) vaziyat keskin darajada bo‘lmasa ham ijobiy

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi


tomonga o'zgarib boshladi. Tushunarlik, ushbu muammolarni yechimining boshqa variantlaridan ham foydalanish lozim.

ISO xalqaro standartlarining talablaridan biri ta'minotchilarga nisbatan attestatsiya talablari hisoblanadi. Ushbu talablarni PVX deraza oynalarini ta'minotchilariga nisbatan qo'llash va faqat ISO xalqaro sifat sertifikatlariga ega bo'lganlar bilan ishlash lozim. Shular bilan birgalikda bajariladigan ishlarga nisbatan korxonalar ishchilari va xodimlarining mas'uliyatini oshirish, jumladan PVX detallarini ishlab chiqarish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan texnologiyaga jiddiy amal qilishni ta'minlashni tashkil etish.

Kompaniya nafaqat ishlab chiqarish bilan balki, PVX derazalarini o'rnatish bo'yicha qurilish-montaj ishlarini bajarish bilan ham shug'ullanadi. Ushbu ishlarni sifatli bajarilishi iste'molchilarning ushbu xizmatlardan qoniqish darajasini oshiradi.

Quyidagi 2-rasmda keltirilgan nuqsonlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, qurilish-montaj ishlarini bajarishda ko'p sonli nuqsonlar paydo bo'ladi. Ushbu nuqsonlarni bartaraf etish uchun muayyan tadbir-choralarni amalga oshirish lozim. Bundan tashqari ta'kidlash lozimki, oynalarning nuqsonlari umumiy nuqsonlar sonining, hattoki qurilish-montaj ishlarining nuqsonlari bilan birgalikda hisoblanganda, katta qismini tashkil etadi.


Aylana ko'rinishida tasvirlangan (2-rasm) nuqsonlarni aniqlangan turlari va joylari bo'yicha taqsimlanishini tahlilidan ma'lum bo'ldiki, muhandislar xatosi va qurilish-montaj ishlarini texnologiyaga amal qilmaslik muhim ahamiyatga ega, ushbu nuqsonlar soni nisbatan kamroq bo'lmasa ham ular bajarilgan qurilish-montaj ishlarini topshirish jarayonida yoki topshirilgan obyektning ekspluatatsiyasi jarayonida namoyon bo'ladi. Eshik va derazalarni noto'g'ri o'lchanishi, chizmalardagi noaniqliklar, hisoblashlardagi xatoliklar muhandislarining asosiy kamchiliklari hisoblanadi.



**2-rasm. Nuqsonlarni aniqlangan turlari va joylari bo'yicha taqsimlanishi<sup>1</sup>.**


<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Pareto diagrammasini tahlilidan (3-4-5-rasm) ma’lum bo’ldiki, qurilish-montaj ishlarini asosiy nuqsonlari hisoblash loyihalarini noto’g’ri yaratilishi, deraza va eshik romlarini mustahkamligini ta’minlaydigan detallarni sifatsiz o’rnatilishi kabi nuqsonlar ko’plab uchraydi. Aniqlangan nuqsonlar asosan loyiha-smeta hujjatlariga quruvchilar tomonidan jiddiy amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Ushbu nuqsonlar ishlab chiqarish va qurilish-montaj jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi hamda iste’molchilar talablarini chuqurroq inobatga olish imkonini beradi. Pareto diagrammasi tahlili nuqsonlarning asosiy qismi inson omili bilan bog’liq ekanini aniqlashga xizmat qilib, loyiha-smeta hujjatlariga rioya etishni kuchaytirish va muhandis hamda ishchilarning malakasini oshirish orqali sifat ko’rsatkichlarini yaxshilash uchun muhim yo’nalishlarni belgilab beradi. Qurilish – montaj ishlarini bajaradigan personalni malakasini oshirish ishchilar qo’nimsizligini kamaytiradigan tadbir-choralarni tatbiq etish, zamonaviy ilg’or texnologiyalardan foydalanish va boshqa shu kabilar vaziyatni ijobiy tomonga o’zgartirish mumkin.



**3-rasm. Qurilish-montaj ishlarini bajarishda aniqlangan nuqsonlarning sabablari<sup>1</sup>.**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi




**4-rasm. Qurilish-montaj ishlarini nuqsonlarni soni bo'yicha Pareto diagrammasi<sup>1</sup>.**

Kadrlar malakasi bilan bog'liq muammolar aytarli barcha kompaniyalarda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kompaniya xodimlarining malakasi uzluksiz oshirib borilishiga qaramasdan kadrlar qo'nimsizligi yuqori darajada ekanligi kadrlar malakasini barqaror oshirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli hozirgi paytda kompaniya rahbariyati xodimlarni motivlash va kompaniyaning korporativ madaniyatini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratmoqda. Bu tadbir-choralarni tatbiq etishdan maqsad iqtidorli kadrlarni kompaniyada uzoq muddat ishlashini ta'minlash, ikkinchi mutaxassislikka o'rgatish va PVX deraza hamda eshiklarini ishlab-chiqarishda iste'molchilar talablarini o'zgarish paytida ishchilar potensialidan unumli foydalanishni tashkil etishdan iborat.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Shunday qilib, qurilish buyumlarini ishlab chiqarishda sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish bilan birgalikda nuqson va kamchiliklarni sabablarini ham aniqlash mumkin. Ushbu ma'lumotlar asosida nuqsonlarni paydo bo'lish sabablarini bartaraf etuvchi tadbir-choralarni yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.




**5-rasm. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha aniqlangan sabablar bo'yicha Pareto diagrammasi<sup>1</sup>.**

Nuqsonlarni taqqoslama baholash natijasida xulosa qilish mumkinki, sifat menejmenti tizimini takomillashtirishni, ushbu tizimni tahlil etish va natijadorligini baholash hamda maqsadga mos keladigan tadbir-choralarni joriy etish kompaniyadagi

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

umumiy vaziyat yaxshilab bormoqda. Quyidagi (6-rasm) diagrammada nuqsonlarning muntazam ravishda kamayib borayotganligi aks ettirilgan.



**6-rasm. Kompaniya mahsulotlarini nuqsonlik darajasini o'zgarish diagrammasi<sup>1</sup>.**

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari PVX deraza va eshiklarni ishlab chiqarish hamda o'rnatish jarayonlarida statistik usullardan foydalanish mahsulot sifatini barqaror va izchil oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Pareto diagrammalari va tavsiflovchi statistik tahlillar nuqsonlarning asosiy sabablarini aniqlash, ularni ustuvorlik darajasiga ko'ra guruhlash hamda boshqaruv qarorlarini faktlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini berdi. Natijalar sifat menejmenti tizimini takomillashtirishda statistik yondashuvlar samarali vosita ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mahsulot sifatini oshirish maqsadida kirish va chiqish nazoratida Pareto diagrammalari, ABC-tahlil va boshqa asosiy statistik usullardan muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Bu nuqsonlarning eng muhim manbalarini tezkor aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, xomashyo va butlovchi qismlar sifatini barqaror ta'minlash uchun ta'minotchilarni tanlash jarayonida ISO xalqaro standartlariga moslik talablarini kuchaytirish hamda uzoq muddatli hamkorlik mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Uchinchidan, ishlab chiqarish va qurilish-montaj jarayonlarida texnologik intizomni mustahkamlash hamda xodimlar malakasini oshirishga yo'naltirilgan muntazam o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bu inson omili bilan bog'liq nuqsonlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, sifat menejmenti tizimida statistik ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini yagona axborot tizimi doirasida muvofiqlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, statistik usullarga asoslangan boshqaruv yondashuvi mahsulot sifati, iste'molchi qoniqishi va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Исакова К. Японские методы управления качеством М. Экономика.
2. U.A. Muxammadiyev. Strategik menejment. Darslik. Toshkent. Lesson Press 2021 y.
3. O'.A. Muxammadiyev, A.N. Djabriyev, X.T. Buriyev, M.Z. Yuzboyeva. "Menejment". O'quv qo'llanma. Samarqand – 2019 y.
4. O'.A. Muxammadiyev, X.T. Buriyev, M.Z. Yuzboyeva. "Menejment savol va javoblarda". O'quv qo'llanma. Samarqand – 2019 y.
5. Виханский О.С. Стратегическое управление М. Экономист. 2006. 164с.
6. Usmanov, I. A., and N. Jumanov Sh. "Ways to improve access control in construction development." *Science and innovation* 1 (2022): 384-386.
7. Usmanov, Ilhom Achilovich, and Sherzod Norboevich Jumanov. "Ways to improve quality control of construction and installation works." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.10 (2021): 651-658.
8. Мухаммадиев, У. А., Ш. Н. Жуманов, and З. А. Мирзаев. "В строительстве крупных комплексов своевременное представление фронтов работ как фактор повышения производительности труда." *Евразийский журнал академических исследований* 2.6 (2022): 1238-1240.
9. Хикматов, Хакимхон Хамзаевич, et al. "Модель и методические рекомендации по рекламе оптимального использования ресурсов в горных регионах республики Узбекистан." *Управление социально-экономическими системами: теория, методология, практика*. 2020.
10. Буриев, Х. Т. "Повышение роли строительного комплекса в системе национального хозяйства республики Узбекистан." *Вестник экономической науки Украины* 1 (28) (2015): 155-156.
11. Жуманов, Ш. Н., М. Ш. Комилова, and А. Х. Ташимов. "“Маркетинг” фанини ўқитишдаги инновациялар ва илғор педагогик технологияларининг аҳамияти." *Экономика и социум* 4-1 (107) (2023): 586-589.
12. Abdalimovich, Mirzaev Zafar, Rakhmonova Feruza Musakulovna, and Jumanov Sherzod Norboevich. "Principles of Doing Business in the Digital Economy." *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance* 4.10 (2023): 131-136.

13. Буриев, Х. Т., and И. А. Усманов. "Пути совершенствования организационно-экономического механизма повышения качества строительства: монография." (2020).



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhih:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, yanvar, 1-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**